

Umar Xayyomning ta'lim-tarbiyaga oid fikrlari

Mohlaroy Shuxratbekova

Ilmiy maslahatchi: M.Mirzakarimova

Andijon davlat chet tillari instituti

Annotatsiya: Ushbu maqola qomusiy olim, ruboiynavis Umar Xoyyomning hayot yo'li va yozgan buyuk asarlari hamda uning matematika, algebra, falakiyot fanlariga qo'shgan hissasi haqida ma'lumot beradi. Bundan tashqari, uning ta'lim - tarbiyaga oid fikrlarini, bilim va donolikning inson hayotidagi ahamiyati, ratsionallik va skeptitsizmning qadri haqidagi qarashlarini alohida ko'rib chiqadi.

Kalit so'zlar: aql, bilim, tanqidiy fikrlash, erta ta'lim, donolikka intilish, ma'rifat, atrof- muhit, o'qituvchining roli, xulq-atvor, tarbiya, sog'lom fikr, ziyrak aql, o'tkir zehn, hatti-harakat

Omar Khayyam's thoughts on education

Mohlaroy Shukhratbekova

Scientific advisor: M.Mirzakarimova

Andijan State Institute of Foreign Languages

Abstract: This article provides information about the life path and great works of the encyclopedist, rubaiyat Umar Khayyam, as well as his contribution to mathematics, algebra, and astronomy. In addition, it separately examines his thoughts on education and upbringing, his views on the importance of knowledge and wisdom in human life, the value of rationality and skepticism.

Keywords: intelligence, knowledge, critical thinking, early education, striving for wisdom, enlightenment, environment, the role of the teacher, behavior, upbringing, common sense, intelligent mind, sharp mind, behavior

Kirish: Umar Xayyom nafaqat Sharq, balki jahon tsivilizatsiyasi tarixida yorqin iz qoldirgan mutafakkir, shoir, matematik, astronom va faylasufdir. U 1048-yil Nishopurda tug'ilgan, uning to'liq ismi G'iyosiddin Abdulfath Umar ibn Ibrohim Hayyom bo'lib, unig otasi chodir tikuvchi bo'lgan. Shu sababli Hayyom tahallusini olgan degan taxminlar bor. U dastlab Balxda (hozirgi Afg'oniston hududi) da tahsil oldiva o'smirlik yillarida Movaraunnahrga kelib, Buxoro va Samarqandda ishladi. Uning yaqin do'sti u bilan birga voyaga yetgan Xuroson sultoni Malikshohning vaziri Nizomulmulik edi. Buyuk faylasuf Malikshoh va Nizomulmulikning da'vati bilan 1074-

yilda Isfahonda rasadxona qurdirtdi va ungga rahbarlik qildi. 1079-yilda esa yangi isloh qilingan taqvim (kalendar) tuzgan. Bu taqvim yevropada 500 yil keyin joriy qilingan Grigoriy kalendaridan ham aniqroq bo'lgan. Umar Hayyom o'zini har sohada shayx ur-ra'is Abu Ali ibn Sinoning hassos va sadoqatli shogirdi deb hisoblagan. U ustozining bir qancha asarlarini arab tilidan fors tiliga tarjima qilgan va Ibn Sino asarlarini tushunmagan odamlarga asarlarni izohlab bergan. U Ibn Sinoning g'oya va qarashlarini davom ettirgan hamda ta'rgib qilgan va bir nechta risolalar yozgan. Jumladan, "Risalat ul-kavn vat-taklif" ("Koinot va uning vazifalari haqida risola"), "Risola fil vujud" ("Borliq haqida risola"), "Risola fi kulliyoti vujud" ("Borliqning umumiyliigi haqida risola"), "Mushkulot ul-hisob" (Arifmetika mushkulotlari) kabi falsafiy asarlarida Ibn Sinoning vorisi va izdoshi sifatida namoyon bo'lgan. 1077-yilda u yunon olimi Yevklid kitobidagi bi necha geometrik shakllarni sharhlab yozgan "Risola fi sharhi mo ashkala min musodarat kitob ul-iklidis" ("yevklid kitobi muqaddimalariga mushkulotlar sharhi haqida risola") asarida butun sonlarning ildizini topish yo'llarini ko'rsatib bergan. Bundan tashqari XII asr fors nasrining nodir namunasi bo'lgan "Navro'znoma" asarida Navro'zning kelib chiqish tarixi, Sharq xalqlarining bu bayram bilan bog'liq an'ana va marosimlari keng yoritilgan, ko'plab hikoya va rivoyatlar keltirilgan. Buyuk faylasuf hayot, hikmat vata'lim haqidagi chuqur fikrlari bilan mashhur fors shoiri va faylasufi edi. Uning mashhur asarlaridan biri "Ruboiyat"da ilmning o'zgartiruvchi kuchi va umrboqiy ta'limning ahamiyati ta'kidlangan ko'plab misralar mavjud. U 1122-yil Eronning Nishopur shahrida vafot etadi.

Asosiy qism: Uning fikriga ko'ra ta'lim tanqidiy va mustaqil fikrlashni va dunyoni chuqurroq anglashni rivojlantirish kerak deb hisoblagan. Ta'limning maqsadi ilm olish emas balki ma'rifatli va fazilatli shaxsni rivojlantirish degan qarashlarni ham ilgari surgan. Bolaning rivojlanishida atrof-muhit ta'sirini ta'kidlab, ularning axloqiy qadriyatlarini atrof-muhit shakllantiradi deb hisoblaydi. U o'qituvchilarning roliga ham alohida e'tibor beradi, uning ta'kidlashicha o'qituvchilar bilimli fazilatli va o'z o'quvchilarining kamolotiga fidoiy bo'lishi kerak va ularga to'g'ri yo'l-yo'riq ko'rsatib, ilhomlantirishlari kerak. Bundan tashqari u erta bolalikda olingan bilimlar muvaffaqiyatga olib boradi chunki erta bolalik tajribasi inson hayotiga katta ta'sir o'tkazaoladi degan nazariyalarni ham tan olgan. Uning hayotga, koinotga va inson qadriga bo'lgan chuqur mushohadalari asosan ruboiylarida falsafiy-didaktik ruhda bayon etilgan. Xayyomning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari insonning kamolotga erishishi, baxtli va mazmunli hayot kechirishi uchun fundamental ahamiyatga ega bo'lgan tamoyillarni o'z ichiga oladi. Xayyomning ta'lim-tarbiya falsafasining markazida aql va bilim turadi. U insonni dunyo sirlarini o'rganishga, hodisalarning mohiyatini anglashga undaydi. Nodonlik va jaholatni insoniyatning eng katta dushmani deb bilgan Xayyom, shaxsning o'zini va atrof-muhitni anglashida ilmning hal qiluvchi rolini ta'kidlaydi. U ko'r-ko'rona taqlid qilishdan voz kechib, mantiqiy

fikrlash, tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarishni tarbiyaning asosi deb biladi. O'z-o'zini Anglash va Inson Qadri Xayyom falsafasida inson - olamning gultoji, yaratilishining eng oliy mahsulidir. Shuning uchun tarbiya, avvalo, insonning o'zligini anglashi, o'zining haqiqiy qadrini bilishi va dunyodagi o'rmini tushunishidan boshlanishi lozim. Ta'lim insonni o'zini past ko'rishdan yoki kibrga berilishdan saqlab, o'zining ichki qudratini ro'yobga chiqarishga yordam berishi kerak. Umar Xayyom nodon kishilardan uzoq yurishni, ularning suhbatidan qochishni qattiq tayinlaydi. Uning fikricha, nodonlik - jamiyatning va shaxsning tanazzuliga olib keluvchi illat. U o'quvchini ilmga intilishga va ilmsizlardan ehtiyot bo'lishga chaqiradi. Bu orqali Xayyom, ilm-ma'rifatga intilish nafaqat shaxsiy boylik, balki ma'naviy xavfsizlikning ham garovi ekanligini uqtiradi. Xayyom diniy riyokorlikka, ikkiyuzlamachilikka va kibrga qarshi bo'lgan. Uning uchun eng buyuk tarbiya - bu qalb pokligi, samimiylik va insonlarga ozor bermaslikdir. Tarbiyalangan inson boshqalarning aybini qidirishdan ko'ra, o'zining kamchiliklari ustida ishlashi, insoniylik va bag'rikenglikni o'zining asosiy mezonlari etib belgilashi lozim. Uning falsafasida insonning ichki dunyosi va axloqi har qanday tashqi ko'rinishdan ustun turadi. Xayyomning "umr o'tkinchidir" degan g'oyasi insonni dangasalikdan, beparvolikdan qutqarishga, har bir lahzadan unumli va mazmunli foydalanishga undaydi. Bu - vaqtni boshqarish, hayot mazmunini anglash va uni zoye ketkazmaslik borasidagi o'ziga xos pedagogik yondashuvdir. Har bir o'tgan lahza qadrli ekanligini tushungan inson o'zini doimiy ravishda rivojlantirishga, foydali ishlar qilishga intiladi. Xayyom tarbiyasida insonning shaxsiy erkinligi va mustaqil fikrlashi muhim o'rin tutadi. U insonni birovning fikri bilan emas, balki o'zining mustaqil qarashlari, aqliy salohiyati asosida yashashga undaydi. Haqiqiy bilimli inson haqiqatni qidirishdan qo'rqmasligi, hatto jamiyatda qabul qilingan xatolarni ham rad eta olishi kerakligini ta'kidlaydi. Umar Xayyomga uning ruboiylari haqiqiy shuhrat keltirdi desak adashmagan bo'lamiz. U o'z ruboiylarida dunyo, odam, hayot mazmuni haqida fikr yuritgan. Umuman olganda shoir ruboiylarining asosiy qismini ishq va hayot, inson tafakkurining qudrati, umrning ma'nosi, insoniy fazilatlar va qusurlar, ma'rifat va jaholat kabi mavzular tashkil etadi. Abulqosim Firdavsiy va Hofiz Sheroziy g'azalni qanchalik takomilga yetkazib, bu a'natni qanchalar yaxshi o'rgangan bo'lishsa, Umar Xayyom ham ruboiylarni shunchalik yuksak darajaga ko'tardi. Uning ruboiylari dunyoning ko'p tillariga tarjima qilingan va XIX asrdan G'arbda ham mashhurlikka erishgan. Ingliz shoiri va tarjimoni Edvard Fitjerald 1859-yilda Umar Xayyomning 70 ta ruboiysini ingliz tiliga tarjima qiladi. Shundan so'ng ruboiylar ingliz tilidan boshqa ko'plab tillarga tarjima qilinadi. Amerikada Umar Xayyomning asarlari asosida teatrlashtirilgan sahna asari, Londonda esa maxsus xayyomlar saroyi mavjud.

Xayyom - mantiqiy fikrlovchi olim. U dunyoni anglashda ko'r-ko'rona ishonchdan ko'ra, aql va dalillarni ustun qo'yadi. Xayyom koinotdagi jarayonlarni

tasodif emas, balki ma'lum bir qonuniyatlar natijasi deb biladi. Uning matematik dunyoqarashi ruboiylarida ham seziladi: har bir misra aniq mantiqiy zanjir asosiga quriladi. U ratsionalist sifatida inson aqlini juda yuksak qadrlaydi, biroq shu bilan birga aqlning ham chegarasi borligini tan oladi. U "dunyoning sirini yechishga intildim, lekin oxir-oqibat hech narsani bilmasligimni angladim" degan g'oyani ilgari suradi (bu Sokratik ratsionalizmga yaqin). U insonni tuproqdan paydo bo'lib, yana tuproqqa aylanishini biologik va fizik jarayon sifatida tasvirlaydi. Bu - dunyoga mistik emas, balki realistik va ratsional qarashning namunasi.

Skeptitsizm (Shubha va tanqidiy nigoh) Xayyom falsafasining eng o'ziga xos jihati - bu shubha. U o'z davrida mutlaq haqiqat deb qabul qilingan ko'plab aqidalarni shubha ostiga oladi. U diniy riyokorlikni, shaklbazlikni va fanatik ishonchni keskin tanqid qiladi. Xayyom uchun shubha - haqiqatga boradigan yo'ldir.

Xulosa: Yuqoridagi ma'lumotlardan xulosa qilib aytish mumkinki, Umar Xayyomning asarlari va ruboiylari juda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Buni hatto rivojlangan davlatlar ham tan olganliginin ko'rishimiz mumkin. Uning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari bugungi kun uchun ham dolzarb ahamiyatga ega. U insoniy fazilatlarni, aql-idrokni, mustaqil fikrlashni, halollik va vaqtini qadrlashni har qanday ta'lim tizimining asosi deb bilgan. Uning falsafasida komil inson - bu chuqur bilimli, ozod fikrli, qalbi pok, insonlarga yaxshilik qiluvchi va o'z qadrini anglagan shaxsdir. Xayyom merosi orqali biz nafaqat o'tmishning buyuk donishmandligini, balki insoniyatni har doim olg'a chorlovchi abadiy haqiqatlarni kashf etamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nabi Jaloliddin. "Umar Xayyom" 2013-yil "Sharq" nashriyoti.
2. Umar Hayyom. "Navro'znoma", - Toshkent, 1990, Xurshid Davron kutubxonasi, kh-davron.uz
3. Abdunasirova X.E. "Umar Hayyomning Ta'lim Tarbiya Borasidagi Ilmiy va Falsafiy Qarashlari", ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE international scientific- online confrence, [://doi.org/10.5281/zenodo.7777348](https://doi.org/10.5281/zenodo.7777348)
4. Umar Xayyom. Ruboiylar. T., O'zKP MK nashriyoti, 1981. kh-davron.uz. Xurshid Davron kutubxonasi